QASHQADARYO VILOYATIDAGI DEMOKRAFIK JARAYONLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI(1991-2015 YILLAR MISOLIDA.

Sh. Xoliqov
Qarshi DU mustaqil izlanuvchisi.

Qashqadaryo viloyatida yuqori tug‘ilish ko‘rsatkichlari tarixiy-an’anaviy qadriyatlar, aholining oilaviy qarashlari, qishloq joylarda yashovchilar ulushining katta bo‘lishi, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu holat bir tomondan aholining tabiiy o‘sishini ta’minlasa, ikkinchi tomondan ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va ijtimoiy ta’minot tizimlari oldiga muayyan vazifalarni qo‘ygan edi.

Qashqadaryo vohasi demografiyasi respublikadagi boshqa hududlardan farqli ravishda mustaqillik yillarida aholining usish surati, to‘g‘ilish va o‘limning kamayishi, farzand ko‘rish ketma-ketligini qisqarishi aholi zichligi va joylashuvidagi o‘zgarishlar, o‘rtacha umr ko‘rish darajasining ortishi, shahar aholisining o‘sishi qishloq aholisiga nisbatan sekinlashuvi, migratsiyaning faollashuvi bilan izohlanadi.

1992-yilga kelib viloyat aholisi da 1 mln 800 ming tashkil qilgan[1]. 1995-yil 1mln 975 ming kishi, shundan shahar aholisi 516 ming kishi, qishloq joylardagi 1 mln 449 ming kishi, 1996-yil 2 mln 30 ming kishi, shahar aholisi 527 ming kishi, qishloq aholisi 1 mln 503 ming kishi, 1997-yil 2mln 79 ming kishi, shahar aholisi 538 ming kishi, qishloq aholisi 1 mln 541 ming kishi, 1998-yil 2 mln 1123 ming kishi,shahar aholisi 546 ming kishi, qishloq aholisi 1 mln 577 ming kishi, 1999-yil 2 mln 170 ming kishi, shundan shahar aholisi 554 ming, qishloq aholisi 1 mln 616 ming kishi, 2000-yil 2 mln 216 ming kishi[2], shundan shahar aholisi 562 ming, qishloq aholisi 1 mln 654 ming kishi, 2001-yil 2 mln 257 ming kishi, shahar aholisi 569 ming kishi, qishloq aholisi 1 mln 688 kishi, 2002-yil 2 mln 298 ming kishi, shundan shahar aholisi 576 ming kishi, qishloq aholisi 1 mln 722 ming kishi, 2003 yil 2 mln 340 ming kishi, shahar aholisi 583 min kishi, qishloq aholisi 1 mln 757 ming kishini tashkil qilgan[3].

Aholi demografiyasida kuzatiladigi holatlardan yana biri shaharda yashaydigan aholi soning ko‘payish jarayonini ham kuzatish mumkin. Misol uchun 2004-yilda voha aholisi 2378,2 ming kishini tashkil qilib, shundan shahar aholisi 587,5 ming kishini, qishloq aholisi 1790,7 ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2015 yilga kelib voha aholisining umumiy soni 2958,9 mingga etib, shahar aholisi 1274,5 ming kishini, qishloq aholisi esa, 1684,4 kishini tashkil qilgan. Bundan ko‘rinadiki, 2004-yilda viloyatda shahar aholisining ulushi umumiy aholining 25% tashkil qilgan bo‘lsa, 2015-yilga kelib shahar aholisi umumiy aholining 43 % tashkil qilgan. Shahar aholisi o‘tgan 10 yil davomida 18% ga ko‘paygan[4].

[1] Қашқадарё ҳақиқати, 1992 йил 22 февраль.
[2] Каримов И.А. Ватан озодлиги, халқимнинг омонлиги, юртимнинг равнақи, ҳар бир оила фаровонлиги – мен учун олий саодат. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 127- б.
[3] Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси йиллик статистик тўплам. – Т., 2005. – Б. 54-55.
[4] Демографический ежегодник Узбекистана. – Т., 2019 г. 5-б.

Qashqadaryo viloyatida qishloq tumanlarining qishloq aholisi soni bo‘yicha guruhlanishi 1989 va 2004-yillarda quyidagicha o‘zgargan. Jami qishloq tumanlari soni 13 tani tashkil etgan. 50,0 ming kishigacha bo‘lgan tumanlar soni 2 tadan 1 taga, 50,1–100,0 ming kishilik tumanlar 6 tadan 3 taga, 100,1–150,1 ming kishilik tumanlar esa 4 tadan 3 taga kamaygan. Aksincha, aholisi ko‘proq bo‘lgan tumanlar soni ortib, 150,1–200,0 ming kishilik tumanlar soni 1 tadan 5 taga yetgan hamda 1989-yilda mavjud bo‘lmagan 200,0 ming va undan yuqori aholiga ega qishloq tumani 2004-yilga kelib 1 tani tashkil etgan[5].

Qashqadaryo viloyati ham tug‘ilish koeffitsientining yuqoriligi bilan mamlakatimizda oldingi o‘rinlarni egalladi. Bunga asosiy sabab, aholisining asosiy qismini qishloqlarda yashashi, shaharlashuv jarayonining sust borishi, aholining jinslar orasidagi farqning kamligi, migratsion jarayonning o‘ta sustligi va boshqa demografik holatlar sabab bo‘lmoqda. Ammo, butun mamlakatdagi kabi Qashqadaryo viloyatida ham tug‘ilish va tug‘ish yoshi koeffisienlarining kamayish tendensiyalari kuzatiladi[6]. Shuningdek, tug‘ilgan bolalarning asosiy qismi nisbatan yosh ayollarga to‘g‘ri keladi.

Mavjud statistik ma’lumotlarning tahlili asosida aholi tabiiy harakatining hududiy xususiyatlariga ko‘ra O‘zbekiston viloyatlarini uch guruhga – tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan (17,0% dan ortiq) hududlarga (Qashqadaryo Surxondaryo, Jizzax), tug‘ilish ko‘rsatgichi o‘rtacha bo‘lgan (15,0 – 17,0%) Buxoro, Sirdaryo, Namangan viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi va tug‘ilish darajasi past (15,0% dan kam) bo‘lgan hududlarga (Navoiy, Farg‘ona, Andijon va Toshkent viloyatlari) ajratish mumkin. Demak, bu ko‘rsatgich bo‘yicha Qashqadaryo viloyati hozirgi paytda mamlakatimizda etakchilik qiladi[7].

Qashqadaryo viloyatida keyingi yillarda aholining tabiiy ko‘payish darajasi o‘limga nisbatan tug‘ilish sur’atlarining kamayishi tufayli biroz kamaydi. Tabiiy ko‘payishning eng past darajasi 1999-yilda 17,7% ni va 2006-yilda 17,9% kuzatildi. Keyingi yillarda O‘zbekistonning barcha viloyatlarida tug‘ilish darajasining qisqarishi tabiiy ko‘payishning pasayishiga sabab bo‘lmoqda. 1989 yilda mamlakatda tabiiy ko‘payish 27,0 % ni tashkil etgan, 2003-yilda esa bu ko‘rsatgich 14,5% ga teng bo‘ldi. Bu yillarda tabiiy ko‘payish darajasi 12,5% ga kamaygan. Bunday holat Qashqadaryo viloyati uchun ham xos (18,7%). Keyingi yillarda tug‘ilish darajasining qisqarishi tabiiy ko‘payishning pasayishiga sabab bo‘lmoqda. 1996-yilda viloyatda tabiiy ko‘payish 27,9%, 2003-yilga kelib bu ko‘rsatkich 19,4% ni tashkil etgan. Shu yillarda tabiiy ko‘rsatkich darajasi 8,5 % ga kamaygan.

Aholining yosh va jinsiy tarkibi birinchi navbatda jamiyatning demografik holatiga bog‘liq. Demografik holat aholining yoshi va jinsiy tarkibi nikohga kirish va nikohning bekor etilishi (ajralish), tug‘ilish, o‘lim va migratsiya kabi jarayonlarda ifodalanadi[8]. Qashqadaryo

[5] Қашқадарё вилоят статистика бошқармаси жорий архиви маълумоти.
[6] Муродова Д.С. Қашқадарё вилоятида аҳоли ўсишининг хусусиятлари. “Ҳозирги замон географияси: Назария ва амалиёт”. Халқаро илмий амалий конференция материаллари - Т., 2006. – Б.41
[7] Муродова Д.С. Қашқадарё вилоятида аҳоли ўсишининг хусусиятлари. “Ҳозирги замон географияси: Назария ва амалиёт”. Халқаро илмий амалий конференсия материаллари - Т., 2006. – Б.41
[8] Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (1989-2009 йй). Монография. – Т.: «Фан ва технология», 2010. –Б.58

viloyatining jami aholisining soni 2007 yilda 2506,2 ming kishini tashkil etgan. Ulardan erkaklar 1255,2 ming kishini va ayollar 1251,0 ming kishi bo‘lgan[9]. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida jami aholi tarkibida erkaklar 50,08 % ni, ayollar esa 49,9% ni tashkil etganligini aniqlash mumkin. 2004-yilda viloyat aholisining 48,9% ini erkaklar va 51,1% ini ayollar tashkil etadi. 2006-yilning boshida Qashqadaryo viloyatida har 1000 nafar ayolga 996 nafar erkak to‘g‘ri kelgan yoki ayollar erkaklardan 0,2% kamroq bo‘lgan; 2008-yilning boshida esa har 1000 nafar erkakka 997 nafarga yaqin ayol to‘g‘ri keldi[10].

2008-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra Qashqadaryo viloyati aholisi 2 mln 506,2 ming kishini tashkil qilib, shundan shahar aholisi 613,8 ming kishini, qishloq aholisi 1 mln 892,4 ming kishini tashkil etgan. Tumanlar bo‘yicha eng ko‘p aholi Chiroqchi tumanida 302,1 ming kishi (shahar aholisi 20,6 ming, qishloq aholisi 281,5 kishini tashkil qilgan). Shahrisabz tumanida 288,9 ming kishi (shundan, shahar aholisi 100,6 kishi, qishloq aholisi 188,3 kishini tashkil etgan). Hudud jihatdan eng katta bo‘lgan Dehqonobod tumani aholisi 112,4 ming kishi bo‘lib, shundan shahar aholisi 9,3 ming kishini, qishloq aholisi 103,1 kishini tashkil etgan[11].

Shuningdek, shaharda yashaydigan aholi 2004-yilda 587,5 ming kishini, qishloq aholisi 1 mln 790,7 ming kishini tashkil qilgan, shundan shaharda erkaklar 294,0 ming kishi qishloqda esa 897,2 ming kishi, shahar ayollari soni 293,3 ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, qishloqda istiqomat qiluvchi ayollar 893,5 ming kishini tashkil qilgan. 2006-yilda shahar aholisi 606,7 ming kishini, qishloq aholisi 1 mln 855,5 ming kishini tashkil qilgan, shundan shaharda yashaydigan erkaklar 303,5 ming kishi, qishloqda esa 929,7 ming kishini tashkil etgan, shaharda istiqomat qiluvchi ayollar soni 303,2 ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, qishloqda istiqomat qiluvchi ayollar 925,8 ming kishini tashkil qilgan[12].

2010-yilning boshida viloyat aholisi 2 mln 589,6 ming kishidan iborat bo‘lib, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent viloyatlaridan keyingi o‘rinda bo‘ldi. Viloyat respublika aholisining 9,5 foizini tashkil etadi. Bu esa demografik ko‘rsatkichning yuqoriligini ko‘rsatadi. Aholi zichligi 1km. kvga 90.5 kishi to‘g‘ri keladi. Mamlakatda esa 1 km.kvga 61,3 kishiga to‘g‘ri keldi[13].

Qashqadaryo viloyatida aholi soni 2011-yilda 2 mln 777,8 kishini, shundan erkaklar 1390,8 ming kishi ayollar 1387,0 ming kishi tashkil etgan. Shahar aholisi 1203,9 tashkil qilib, erkaklar 602,7 ming kishi, ayollar 601,2 ming kishini, qishloq aholisi 1573,9 ming kishini tashkil qilib, shundan erkaklar 788,1 ming kishini, ayollar 785,8 ming kishini tashkil qilgan.

---

[9] Эгамова Д., Тожиева З., Саидова З. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларидаги демографик ҳолат (Қашқадарё вилояти мисолида) // География ва қадриятлар. – Т., 2001. – Б.34

[10] Муродова Д.С. Қашқадарё вилоятида аҳоли о‘сишининг хусусиятлари. “Ҳозирги замон географияси: Назария ва амалиёт”. Халқаро илмий амалий конференсия материаллари - Т., 2006. Б.22

[11] Қашқадарё вилоят паспорти. – Қарши, 2009. – Б. 12.

[12] Вилоят статистика бошқармаси сайти (qashstat.uz) материаллари.

[13] Салиева С., Файзуллаев М.А., Курбанов.П.Р. Основные направление социально-экономического развития районов и городов Кашкадарьинской области // Замонавий географиянинг регионал муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2010 й, 18-19-май, 128-б

2014-yilda viloyat aholisi 2960,6 mingi kishini tashkil etib shundan erkaklar 1487,7 ming kishi ayollar 1472,9 ming kishi tashkil etgan. Shahar aholisi 1275,2 tashkil qilib, erkaklar 641,4 ming kishi, ayollar 633,8 ming kishini, qishloq aholisi 1685,4 ming kishini tashkil qilib, shundan erkaklar 846,3 ming kishini, ayollar 839,1 ming kishini tashkil qilgan.

2015-yil viloyat tumanlaridagi aholi sonini tahlil qilinganda G‘uzor tumanida 185,3 ming kishini tashkil qilib, shahar aholisi 43,7 ming kishini, qishloq aholisi 141,6 ming kishini tashkil qilgan. Dehqonobod tumanida 131,7 ming kishini tashkil qilib, shahar aholisi 25,2 ming kishini qishloq aholisi 106,5 ming kishini tashkil qilgan. Qamashi tumanida 243,2 ming kishini tashkil qilib, shahar aholisi 57,4 ming kishini, qishloq aholisi 185,8 ming kishini tashkil etgan. Qarshi tumanida 220,7 ming kishini tashkil qilib, shahar aholisi 80,9 ming kishini, qishlofq aholisi 139,8 ming kishini tashkil qilgan.

Global Science Publication